

MTT RAHBARI VA PEDAGOGLARNING MEHNAT MUNOSABATLARI NORMALARI

Rajabova Zilola Latifovna

**Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar 36-son
DMTT direktori**

Annotatsiya: Mazkur maqolada MTTda mehnat munosabatlarini boshqarish, mehnat samaradorligini oshirish, rahbar va xodimlarning o'zaro munosabatlari qoidalari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, jamoa, munosabat, madaniyat, rahbar, pedagog, fazilat, faoliyat, samaradorlik, etiket.

Maktabgacha ta'lim tizimi zamonaviy rahbari – bu yuksak boshqaruv madaniyatiga ega shaxsdir. Ko'pgina mutaxassislar boshqaruvni faoliyat turi sifatida belgilab, ob'ekt va sub'ektga ta'sir o'tqazish orqali pedagogik tizimni yangi sifatga o'tkazish jarayoni deb qaraydilar.

Kompetentlik, keng dunyoqarash, tashabbuskorlik, umumiy madaniyat kabi fazilatlar MTT mudiriga pedagogik va adminstrativ vazifalarni tezkor yechishga yordam berib, mutaxassis va xodimlarni to'g'ri taqsimlash va ularning vazifalarini belgilash, har bir xodim faoliyatini rag'batlantirish kabi jarayonlarni to'g'ri tashkil etishga yordam beradi.

MTT rahbari o'z boshqaruv faoliyatida yuksak natjalarga erishish uchun ish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi faktorlarni bilishi va hisobga olishi zarur. Shulardan biri rahbar va bo'ysunuvchilarning jamoada shakllangan o'zaro munosabatlaridir.

O'zaro munosabatlar xarakteri, jamoadagi mikroiklim va undagi hukmron kayfiyat muassasa ishining muvafaqqiyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Etika va etiket zamonaviy jamiyatda katta rol o'ynaydi va xatti-harakat madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda rahbarlar o'zlarining yuksak madaniyatli, professional va kommunikativ fazilatlarini namoyish etishga yordam beruvchi etika va etiket qoidalari yanada ko'roq e'tibor qaratmoqdalar.

Jamoada ish hamkorligini yaratish – uzoq va murakkab jarayondir. U birinchi o'rinda muassasa rahbarining xodimlar hamkorligi faoliyatini tashkillashtira olish, bolalar va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashda tarbiyachilarga yaqindan yordam berish, har bir xodimga individual yondoshuv qobiliyatiga bog'liq.

Rahbarning axloqiy fazilati, xatti-harakatlari jamoadagi munosabatlarni belgilaydi. MTT rahbarining faoliyati murakkab va ko'pqirralidir. Umumiy maqsadlar, vazifalar ostida pedagogik jamoani jipslashtirish uning asosiy vazifasidir. Zamonaviy rahbardan quyidagi ko'nikmalar talab etiladi:

- Xodimlarning shaxsiy intilishlariga asoslanib, ularning yaxshi tomonlarini ko'ra bilish;
- Jamoada do'stona munosabatlarni o'rnatishga ta'sir ko'rsatish;
- Xodimlar bilan muloqot (pedagogik etika, xushmuomalalik, nafislik, ishonchli tondagi muloqot va h.k.)

Barcha ko'rsatilgan fazilatlar MTTda ishonchli atmosferani yaratilishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining "yuzi"ni uning pedagogik jamoasi belgilaydi. Bu jamoani esa, jipslashtiradigan, ishchan ijodiy kuchga aylantiradigan – mudir va metodistdir. Direktor va direktor o'rinbosari MTTdagi butun pedagogik jarayonni tashkillashtirish uchun javob beradi.

Shuning uchun ham rahbarning xatti-harakati, o'zini tutishi, qat'iyatliliigi, maqsad sari intilishi, ish munosabatlari jarayonida yuzaga keladigan kasbiy faoliyat uchun zaruriy shartdir.

Ma'lumki, pedagoglar hurmat va o'zaro hurmatga yuqori ehtiyojli insonlar hisoblanadi. Ular uchun jamoadagi yaxshi munosabatlar, axloqiy rag'batlantirishning turli formalari juda muhim. Shu sababli rahbar shu xususiyatlarni hisobga olib, pedagoglar bilan xushmuomala, yaqin va yaxshi muloqotda bo'lishi lozim. MTT rahbarining xatti-harakati ma'lum ma'noda pedagoglarning axloqiy intilish mo'ljali hisoblanadi. Bu esa unga mas'uliyat, o'z kasbiy burchini mukammal bajarishga undaydi.

Ko'pincha jamoa qanday bo'lsa, rahbar ham shunaqa bo'ladi deyishadi. Ma'lum ma'noda bu to'g'ri, chunki ishchi guruhning tepasida turgan inson mehnat muhitini tashkil etadi.

Uning xizmat xuquqlari uning mas'uliyatiga ko'paytiriladi. Rahbar jamoa a'zolarining o'zining xatti-harakatlarida qaysi fazilatlari va xususiyatlarini ko'proq va qaysini kamroq qadrlashlarini ko'ra bilishi kerak. Zamonaviy etiket insonning ichki olamini kengaytiradi, atrofdagilar bilan muvafaqqiyatli muloqot qilish imkonini beradi, nafaqat xatolarning oldini oladi balki, ish va shaxsiy hayotdagi boshqa kelib chiqadigan tushunmovchiliklarga barham beradi.

Rahbar faoliyatining muvafaqqiyati nafaqat uning kasbiy bilimlari, balki uning shaxsiy fazilatlari va bo'ysunuvchilar bilan aloqa o'rnatish va o'zaro tushunishi bilan bog'liqdir.